



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023
Maxsus son

DJURAYEV Risbay
Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.

O'z MAA'dan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yaxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lim»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Abdug'appon QIRQIZBOYEV
Uzoqboy BEGIMQULOV
Xolboy IBRAGIMOV
Laylo AXMEDOVA
Roxatoy SAFAROVA
Leyla DJURAYEVA
Dono G'ANIYEVA
Lobar QARAXANOVA
Dusmurod DJURAYEV
Baxodir AKBAROV
Komiljon KARIMOV
Komiljon GULYAMOV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov**
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E. Usarov**
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O. Ximmataliyev**
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I. Mahkamov**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B. Qorayev**
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O. Ernazarova**
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.N. Xodjamkulov**
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O. Raxmanova**
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У. Қодирова**
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksизликни таъминлашнинг педагогик-психологик механизmlari
- 53 **G.S. Abdullayeva**
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- 59 **P. Мусумонов**
Uzluksiz ta'lim muassasalarida ўқув жараёнига нисбатан интизомсизликка оид педагогик ва психологик қарашлар
- 65 **I. Qodirov**
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F. Ravshanov**
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **У.Ю. Файзуева**
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей с ОВЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh.A. Abdujalilova**
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishida uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J. Eshnaev**
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh.X. Kobilova**
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F. Qurbonova**
Uzluksiz ta'limda jaraonida zamonaviy yodashuvlar
- 104 **A.R. Raxmonov**
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobilli tizimidan foydalanish
- 110 **I.O. Sayfullayeva**
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S. Ishmatova**
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A. Egamberdiyeva**
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviyligini ta'minlash omillari



AUTIZM SINDROMLI BOLALAR BILAN YAKKA ISHLASHNING UZVIYLIGINI TA'MINLASH OMILLARI

N.A. EGAMBERDIYEVA,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti «Maxsus pedagogika» kafedrası o'qituvchisi*

Ushbu maqolada autizm sindromli bolalarni xulq-atvori va umumiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishini ta'minlovchi korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etish va olib borishning uzviyligini ta'minlash omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: autizm spektridagi kamchilik, ASB, autizm sindromi, simptom, streotip, ABA, TEACCH, Xolding, DLT terapiyalari, DJT (davolovchi jismoniy tarbiya) yo'riqchisi.

В данной статье освещаются факторы, обеспечивающие преемственность эффективной организации и проведения коррекционно-развивающей работы по устранению недостатков в поведении и общем развитии детей с синдромом аутизма и обеспечению их успешной адаптации к социальной жизни.

Ключевые слова: расстройства аутистического спектра, РАС, синдром аутизма, симптом, стереотип, АВА, TEACCH, Холдинг, DLT-терапия, инструктор ЛФК.

This article highlights the factors that ensure the continuity of the effective organization and implementation of correctional and developmental work to eliminate deficiencies in the behavior and general development of children with autism syndrome and ensure their successful adaptation to social life.

Key words: autism spectrum disorders, ASD, autism syndrome, symptom, stereotype, ABA, TEACCH, Holding, DST therapy, physical therapy instructor.

So'nggi vaqtlarda turli xil ko'rinishga ega autizm spektrida kamchiligi bor bolalar soni juda tez o'sib borayotgani kuzatilmoqda. Autizm klinik ko'rinishlarining xilma-xilligi, ushbu kasallikning murakkab shakllari mavjudligi, shuningdek, korreksiyalash va tarbiyalash ishlarning murakkabligi autizm sindromini o'rganish nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy va dolzarb muammodir.

Autizm atamasi (yunoncha. autos-o'zi) 1912-yilda E.Bleyler tomonidan amaliyotga tadbiiq etilib, insonning hissiy ehtiyojlari bilan tartibga solinadigan va real hayotga mos bo'lmagan fikrlashning o'ziga xos turini anglatadi.

Autizm spektrdagi kamchilik – bu haddan tashqari yolg'izlikka intilish, hatto yaqin odamlar bilan hissiy aloqaning buzilishi, xatti-harakatlar va nutqdagi stereotiplar, bir xil turdagi affektiv harakatlarning ko'pligi (qiziqishlar), nutq, muloqot va intellektual rivojlanishining o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi.



E.R.Baenskaya va M.M.Liebling erta bolalik autizmi bor bolalarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar:

- hissiy aloqani o'rnatish qobiliyatining buzilishi;
- xulq-atvorda stereotip, monoton harakatlarning mavjudligi;
- nutqi rivojlanishida: mutizm, exolaliya, nutq shtamlari, nutqda shaxs son olmoshlarining yo'qligi yoki buzilganligi kabi kamchiliklardir.

Shu sababli, autizm sindromli bolalarni reabilitatsiya qilish muammosi juda dolzarb hisoblanib, EBA (erta bolalik autizmi) holatlarining 70% dan ko'prog'ida terapevtik va korreksion ishlari olib borilmasa, chuqur nogironlik kuzatiladi.

Autizm sindromli bolalar bilan ishlash ularni jamiyatga integratsiya qilish va muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Autizm sindromli bolalarni ta'lim klasteri sharoitida reabilitatsiya qilish uchun tibbiy, pedagogik, logopedik, evritmik va boshqa korreksion qo'llab-quvvatlash ishlari mujassamlashgan nostandart yondoshuvlar kerak. Reabilitatsiya yondashuvlari, birinchi navbatda, stereotipik xatti-harakatlar, nutq, motorika, aqliy va ruhiy zaiflik kabi rivojlanish nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi autizm spektrida kamchiligi bo'lgan bolalarni ijtimoiylashuviga samarali yordam beradi.

Hozirgi kunda autizm sindromli bolalarni korreksion va rivojlantiruvchi yagona samarali usuli mavjud emas. Muayyan natijalarga bir vaqtning o'zida turli xil korreksion usullarini qo'llash va turli ixtisoslikdagi mutaxassislar guruhini jalb qilish orqali erishish mumkin. Ta'lim klasteri muhitida ASB bolalar bilan ishlashda katta rolni ota-onalar egallab, ular oilada maxsus o'quv jarayonini va farzandlari bilan munosabatlarni o'rnatishga tayyor bo'lishlari uchun kerakli bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar tizimini shakllantirishlari zarur hisoblanadi. Ya'ni, autistik bola bilan ishlash ota-onasini tayyorlashdan boshlanib, korreksion ish tizimiga barcha mutaxassislarning aralashuvi bilan amalga oshiriladi.

Autizm sindromli bola bilan korreksion-reabilitatsiya ishlari imkon qadar erta boshlanishi kerak.

Autizm sindromli bolalar bilan olib boriluvchi maxsus tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar boshida albatta, parxezlardan: vitaminlarga boy mahsulotlar iste'mol qilish, ovqatlanish rejimiga rioya etish, glyutensiz, kazeinsiz va soyasiz parhezlarni kiritish, antibakterial va kandidozga qarshi dori vositalaridan foydalanish, immunitet tizimini qo'llab-quvvatlash, organizmdan og'ir metallarni chiqarish kabi metodlar foydalanish yaxshi natija beradi.

Autizm sindromli bolalar bilan ishlash jarayonida tibbiy usullardan foydalanish asosiy o'rinda turadi. ASB bolalar bilan amaliyotda Tomatis usulidan keng foydalaniladi. Shu bilan birga tibbiy usullarga, ya'ni yuqori chastotali terapiya (tovush terapiyasi), miya mikropolyarizatsiyasi (nutq zonalarini rag'batlantirish,



aqliy rivojlantirish), biakustik stimulyatsiya, Barok kameralar (kislorod bilan davolash), Gomeopatiya va boshqalar kiradi.

Autizm sindromli bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning psixologik usullari juda xilma-xildir.

Evritmiya – XX asr boshlarida paydo bo'lgan badiiy harakat san'ati. Bu raqs yoki pantomimikaga o'xshash maxsus uyg'un va sinxron harakatlar bilan birlashtirilgan musiqadir. Evritmik harakatlar musiqa jozibasi va nutq malakalari tajribasiga asoslanadi.

TEACCH terapiyasi (mexanik o'qitishning tuzilishi) AQSh va Evropada faol qo'llanilib kelinadi. Metodika turli xil jadvallar, kartalar, ko'rsatkichlar, harakatlar algoritmlari va boshqalar orqali makon hamda vaqt haqidagi tushunchalarni tuzishga asoslangan. Ushbu metodikada atrof-olam bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirishda stereotipik andozalaridan keng foydalaniladi.

DLT (Daily Life Therapy) – Kundalik hayot terapiyasi. Ushbu metodika Yaponiyada ishlab chiqilgan va uchta elementdan iborat:

1) kunlik jismoniy mashqlar dasturi orqali hayot ritmini o'rnatish va hissiyotlarni barqarorlashtirish;

2) guruh faoliyati orqali atrof-muhitga «qaramlik ruhini» olib tashlash;

3) bir xil harakatlarni doimiy takrorlash orqali intellektual rivojlanishni qo'llab-quvvatlash (neyrogimnastikalar).

Sensorli integratsiya usuli bolaning sezgi a'zolari orqali qabul qilingan ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu unga atrof-olamga samarali ijtimoiylashuv imkonini beradi. Integratsiya hid bilish, teri-taktil, ta'm bilish, ko'rish, eshitish, fazoviy tasavvurlar va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Amaliy xulq-atvorni tahlil qilish usuli (ABA) terapiyasi birinchi marta 1963-yilda Los Anjelesdagi Kaliforniya universitetidagi doktor I.Lovaas va uning hamkasblari tomonidan autistik bolalar bilan ishlash uchun ishlatilgan. Ushbu metodikaning asosiy maqsadi: amaliy xulq-atvorni tahlil qilish, shuningdek, xulq-atvor «muhandisligi» deb ataluvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakatlarni o'zgartirish uchun respondent va operant o'qitish usullariga asoslangan empirik yondashuvlarni qo'llaydigan ilmiy metodikadir.

Korreksion-rivojlantiruvchi ishlarini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turib, o'zing bir qator vazifalariga ega.

Autizm sindromli bolalar bilan ishlashning asosiy vazifasi o'zaro aloqa o'rnatishdir.

ASB bolalar bilan olib boriluvchi korreksion ishlarini tashkil etish uch bosqichda amalga oshiriladi:



1-bosqich – bu o‘quv mashg‘ulotining stereotipini shakllantirish:

– bola o‘quv-ish o‘rniga o‘rganishi, o‘quv jarayoniga ko‘nikishi kerak. Yangi materialni bosqichma-bosqich yetkazib berishni, dozalashga rioya qilish juda muhim, chunki autistik bolalar yangi narsalarni juda qiyin qabul qilishadi, ammo shu bilan birga bolaning qiziqishlari va istaklarini inobatga olish kerak bo‘ladi.

So‘rovlar va ko‘rsatmalar aniq va qisqacha bayon etilib, ketma-ket bir necha marta takrorlamasligi kerak.

Dastlabki bosqichlarda o‘qitishning asosiy vazifasi ijobiy xulq-atvorni umumiy shakllantirish uchun munosabatni shakllantirish, qat‘iyatlilik, e‘tiborni saqlab qolishdir. Shu bilan birga, bolaning kerakli xatti-harakatlarini maqto‘v, rag‘bat orqali qo‘llab-quvvatlash, uning manfaatlaridan foydalanish muhimdir.

Dastlab, bola faqat kattalarning harakatlarini kuzatadi.

2-bosqich – bu faoliyatning fazoviy-davriy stereotipini shakllantirish.

Autizm sindromli bolalar avvaldan o‘rganilmagan vaziyatlardan, o‘zgarishlardan, yangiliklardan qochadilar. Ular o‘zi bilgan, o‘zini qiziqtirgan predmet va narsalarga bog‘lanib qoladilar va mashg‘ulot davomida bola berilgan vazifalarga qiziqish bildirmay, o‘zlari xohlagan predmetlarga intilishadi. Bu jarayonda pedagog berilgan vazifani oxirigacha bajarishini taklif etadi hamda rag‘bat sifatida o‘zini qiziqtirgan predmetni berishini ta‘kidlaydi. Korreksion ishlar jarayonida bolaning aniqlangan intellektual va nutq qobiliyatlari bilan belgilanadigan ta‘lim yo‘nalishiga qarab vazifalar beriladi.

3-bosqich – darsning semantik stereotipini rivojlantirish

Autizmli bolalarda o‘z faoliyatini boshqarish va tashkil etishda jiddiy qiyinchiliklar mavjud. Bola psixik jarayonlari: diqqati, idroki, xotirasi hamda tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagilar xizmat qiladi:

– vazifa bolaning qiziqishlari va sevimli mashg‘ulotlariga muvofiq tanlanadi;

– mashg‘ulotlar davomida hissiy va semantik sharh ishlatililib, sharh syujet ma‘nosiga ega bo‘lishi kerak;

– har bir mashg‘ulot davomida faoliyat turlarining ketma-ketligi qat‘iy aniqlikka ega bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida autizm sindromli bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirishga hamda ijtimoiy hayotga moslashishiga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar avvalo, yakka tartibdagi mashg‘ulotlar tarzida tashkil etiladi. Keyinchalik, bola o‘zaro ijtimoiy ta‘silarga tayyor bo‘lgandan so‘ng, mashg‘ulotlar kichik guruhlarda hamda guruhlarda davom etiriladi. Bu o‘z o‘rnida bolaning o‘z tengdoshlari bilan muloqotga kirishishiga zamin bo‘lib, ijtimoiy adaptatsiyaning amalga oshishiga yordam beradi.

Autizm sindromli bolalar o‘z tengdoshlari qatorida ta‘lim olishi, jamiyatda



o'z mavqeiga ega bo'lishi, har tomonlama shakllanishi va o'zligini namoyon etishida tibbiy, pedagogik-psixologik ta'sirning uzviyligi hamda o'zaro aloqasi katta ahamiyatga ega. Bu ishni amalga oshirishda Sog'liqni saqlash, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Yoshlar siyosati va sport vazirliklari hamda mahalla fuqarolar yig'ini va shu bilan birga autizm sindromiga ega farzandni tarbiyalovchi oilalarning birgalikdagi hamkorligi yuqoridagi vazifalarni amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Никольская О. С, Баенская Е.Р., Либлинг М.М. Аутичный ребенок. Пути помощи. М.:Теревинф, 1997.

2. Autizm sindromli bolalar bilan ishlash hozirgi kunning dolzarb masalasi sifatida Egamberdiyeva N.A. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali 3 (4), 95-100

3. N.A.Egamberdiyeva «Ta'lim klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida». INSON FAROVONLIGINI O'RGANISHDA FANLARARO YONDASHUV xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. II qism. Toshkent - 2023-yil. 154-158-betlar.

4. N.A.Egamberdiyeva «RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISH». «RAQAMLI TA'LIMNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ULARNI TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA TADBIQ QILISH YO'LLARI» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 1-TOM. 2023-yil. 278-282-betlar

8. Sh.X.Kobilova. Inklyuziv ta'lim jarayoniga ilmiy pedagogik yondashuv. Pedagogik ta'lim, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi 2023-yil, 15-iyun. - B.566-568.



*Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.05.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**